



GLOBALLASHUV SHAROITIDA IQTISODIY O‘SISHNING XUSUSIYATLARI

Musurmonova M.S. SamISI, assistant-stajyori

muxlisamusurmonova97@gmail.com

Ochildiyev S.B. SamISI, talabasi

samariddinochildiyev@gmail.com

Annotatsiya: Ushbu maqolada muallif tomonidan iqtisodiy nazariy asoslardan kelib chiqqan holda global iqtisodiy integratsiya jarayonining o‘shish dinamikasiga ta’siri, globallashuv sharoitida iqtisodiy o‘shishning ahamiyati, globallashuvning iqtisodiy o‘shishga ta’sir qiluvchi omillari, iqtisodiy o‘shishning zamonaviy tendensiyalari to‘g‘risida ma’lumot takliflar keltirilgan.

Kalit so‘zlar: globallashuv, transmilliylashtirish, Yevropa Ittifoqi, NAFTA, MDH, Yevroosiyo iqtisodiy hamjamiyati, Afrika ittifoqi, KOF.

Globallashuv – bu xalqaro mehnat taqsimoti, iqtisodiy va siyosiy munosabatlar tizimi orqali bir-biri bilan bog‘langan milliy iqtisodiyotlar majmui sifatida tushuniladigan, jahon iqtisodiyoti tarkibini o‘zgartirish jarayonlarining o‘ziga xos xususiyatlaridan biridir. Transmilliylashtirish va mintaqaviylashtirish asosida iqtisodiyotning chambarchas bog‘liqligi hisoblanadi. Shu asosida yagona jahon tarmog‘i, bozor iqtisodiyoti, geoiqtisodiyot va uning infratuzilmalari shakllanmoqda, ko‘p asrlar davomida xalqaro munosabatlarning asosiy xarakteri bo‘lib kelgan davlat suvereniteti ta’sirining pasayishi sodir bo‘lmoqda.



Globalashuv jarayoni bu davlat tomonidan shakllantirilgan bozor tizimlari evolyutsiyasining natijasidir. Buning asosiy natijasi – global mehnat taqsimoti, kapital, mehnat, ishlab chiqarish resurslarining dunyoviy miqyosdagi migratsiyasi (shuningdek, qoida tariqasida, kontsentratsiya), qonunchilikni, iqtisodiy va texnologik jarayonlarni standartlashtirish, shuningdek, turli mamlakatlar madaniyati bir-biriga yaqinlashishi hamda birlashishidir. Globalashuv tizimli xususiyatga ega, ya'ni jamiyat hayotining barcha sohalarini qamrab oluvchi obyektiv jarayondir. Globalashuv natijasida dunyo o'zining barcha subyektlari bilan bog'lanib, tobe bo'lib bormoqda. Bir guruh davlatlar uchun umumiy bo'lgan muammolar sonining ko'payishi va birlashtiruvchi subyektlarning soni va turlarining kengayishi mavjud. Globalashuvning kelib chiqishi haqidagi qarashlar doimo munozarali bo'lib kelgan. Tarixchilar bu jarayonni kapitalizmning rivojlanish bosqichlaridan biri deb hisoblaydilar. Iqtisodchilar bu jarayonni moliya bozorlarining transmilliylashuvidan ekanligini ta'kidlab kelishmoqda. Siyosatshunoslar demokratik tashkilotlarning keng tarqalishiga urg'u berishadi. Madaniyatshunoslar globalashuvning namoyon bo'lishini madaniyatning g'arbiylashuvi, jumladan, Amerika iqtisodiy ekspansiyasi bilan bog'lashadi. Globalashuv jarayonlarini tushuntirishda axborot texnologiyalari yondashuvlari mavjud. Siyosiy, iqtisodiy va ijtimoiy-madaniy globalashuv bir-biridan farq qiladi. Mintaqaviylashtirish globalashuv subyekti bo'lib, texnologik va iqtisodiy rivojlanishning jahon qutblarini shakllantirishda kuchli kumulyativ samara beradi. Shu bilan birga, „globalashuv“ so'zining kelib chiqishining o'zi shuni ko'rsatadiki, bu jarayonda yetakchi rolni ma'lum tarixiy bosqichlarda sodir bo'lgan xalqaro savdoning jadal o'sishi egallaydi. Birinchi marta „globalashuv“ so'zini („jiddiy xalqaro savdo“ degan ma'noni anglatadi) 1850-yillarning oxirida Fridrix Engelsga yozgan maktublaridan birida Karl Marks ishlatgan. deb yozgan edi: „Endi jahon bozori haqiqatan ham mavjud. Kaliforniya va Yaponiyaning jahon bozoriga chiqishi bilan globalashuv amalga oshdi“. Globalashuv jarayonlarida xalqaro savdoning xuddi shunday yetakchi roli, Marks davrida boshlangan oldingi globalashuv 1930-yillarda,



barcha rivojlangan davlatlar qattiq proteksionizm siyosatiga o'tgandan so'ng yakunlanganidan dalolat beradi.

Milliy iqtisodiyotlar tobora birlashgan Globallashuvning tarkibiy elementlari xarakterini egallamoqdalar. Endilikda ikki yuzdan ortiq davlatlarning o'zaro ta'sir ko'rsatuvchi milliy iqtisodiyotlari, shuningdek, transmilliy korporatsiyalar va davlatlararo va sivilizatsiyalashgan iqtisodiy birlashmalar va ittifoqlar mavjud. Bular: Yevropa Ittifoqi, NAFTA, MDH, Yevroosiyo iqtisodiy hamjamiyati, Osiyo-Tinch okeani iqtisodiy hamkorligi, Afrika ittifoqi va boshqalar. Xalqaro iqtisodiy tashkilotlar qatoriga Birlashgan Millatlar Tashkilotining Iqtisodiy va Ijtimoiy Kengashi, Jahon banki, Xalqaro valyuta jamg'armasi, Jahon savdo tashkiloti va boshqalar kiradi. Geoiqtisodiyot jahon bozorining birligi va uni tartibga solish qoidalari asosida ishlaydi. Jahon Savdo Tashkiloti (WTO), Xalqaro Valyuta Jamg'armasi (IMF) va boshqa xalqaro tuzilmalar mamlakatlarga o'z iqtisodiy siyosatlarini yaxshilash va optimallashtirish bo'yicha maslahatlar beradi, bu esa iqtisodiy barqarorlik va o'sishni ta'minlaydi.

Global iqtisodiyot rivojlanishining umumiy indikatorlari mavjud bo'lib, ular qatoriga quyidagilar kiradi. Birinchidan, —Inson taraqqiyoti indeksil reytingiga jami 189 mamlakat kiritilgan bo'lib, har bir mamlakatning global iqtisodiyotda tutgan mavqeini belgilaydi. Reytingdagi davlatlar o'zni ta'lim darajasi, umrning o'rtacha uzunligi va yalpi ichki mahsulotning aholi jon boshiga to'g'ri kelishi bo'yicha belgilanadi. Shuningdek, gender tenglik, ayollar huquqlari va imkoniyatlarining kengligi, ekologiya va ijtimoiy-iqtisodiy barqarorlik ham hisobga olingan.

Dunyo mamlakatlarining globallashuv indeksi (KOF Index of Globalization), Shveysariya iqtisodiyot instituti (KOF Swiss Economic Institute) tomonidan aniqlanadi. Indeks doirasida tadqiq qilinadigan barcha mamlakatlar global integratsiyaning 3 ta asosiy guruhi tarkibiga kiritilgan 24 ta ko'rsatkich bo'yicha baholanadi:



1. Iqtisodiy globallashuv – xalqaro savdo hajmi, xalqaro tadbirkorlik faoliyati darajasi, savdo oqimlari, xalqaro sarmoyalar, tarif siyosati, xalqaro savdoga cheklov hamda bojlar va boshqalar.

2. Ijtimoiy globallashuv – madaniy integratsiyalashuv darajasi, mamlakatdagi xorijiy fuqarolar ulushi, xalqaro turizm, xalqaro shaxsiy aloqalar, telefon trafiklari hajmi, pochta jo‘natmalari, transchegaraviy pul o‘tkazmalari, axborot oqimlari, axborot-kommunikatsiya infratuzilmasining rivojlanganligi va hokazolar.

3. Siyosiy globallashuv – mamlakatning xalqaro tashkilotlarga a‘zoliqi, xalqaro missiyalarda ishtiroki (shu jumladan BMT missiyalari), ko‘ptomonlama xalqaro bitimlarning ratifikatsiyasi, mamlakatdagi elchixonalar hamda chet el vakolatxonalarining soni va boshqalar. Indeksni shakllantirishda manba sifatida Jahon Banki, Xalqaro valyuta jamg‘armasi, BMT, Xalqaro telekommunikatsiya ittifoqi va boshqa xalqaro tashkilotlar hamda statistika institutlari ma’lumotlarining ixtisoslashtirilgan bazalaridan foydalaniladi.

Global raqobatbardoshlik indeksi 113ta ko‘rsatkichdan iborat bo‘lib, turli rivojlanish darajasida turgan mamlakatarning raqobatbardoshligini batafsil yoritib beradi. Barcha ko‘rsatkichlar 12 ta guruhga kiritilgan¹:

1. Institutlar sifati.
2. Infratuzilma.
3. Makroiqtisodiy barqarorlik.
4. Sog‘liqni saqlash va boshlang‘ich ta’lim.
5. Oliy ta’lim va kasbiy tayyorgarlik.

¹ https://namdu.uz/media/Books/pdf/2024/08/07/NamDU-ARM-13125-Jahon_iqtisodiyotining_globallashuvi.pdf



6. Tovar va xizmatlar bozorining samaradorligi.
7. Mehnat bozorining samaradorligi.
8. Moliya bozorining rivojlanganlik darajasi.
9. Texnologik rivojlanganlik darajasi.
10. Ichki bozorning hajmi.
11. Korxonalarining raqobatbardoshligi.
12. Innovatsion salohiyat.

Globalashuv yoki iqtisodiy rivojlangan mamlakatlarning jahon iqtisodiyotidagi ta'sirining kuchayishi qayerdan boshlanadi? Bu muammo ilmiy-texnika taraqqiyotining mamlakatlar bo'yicha notekis taqsimlanganligi bilan bog'liq. Ilmiy kashfiyotlar tarixi va geografiyasiga nazar tashlaydigan bo'lsak, ular birinchi navbatda rivojlangan G'arb mamlakatlarida paydo bo'ladi. Sanoatdagi ilmiy-texnikaviy inqilob ham birinchi bo'lib shu mamlakatlarda sodir bo'ldi. Ishlab chiqarishni sanoatlashtirish ishlab chiqarish texnologiyasi bilan bog'liq. Aksincha, rivojlangan mamlakatlarning hukmron kuchi bevosita texnologik innovatsiyalardan kelib chiqadi. Texnologik almashinuvni kengaytirish globalashuvning asosiy harakatlantiruvchi omillaridan biridir.

Xalqaro xizmatlar globalashuvning kuchayishiga yordam beruvchi omillardan biridir. BSG xalqaro xizmatlarni 160 toifaga ajratadi. Bunday xalqaro xizmatlarning muhim qismi rivojlangan mamlakatlar tomonidan amalga oshiriladi. To'g'ri, rivojlanayotgan davlatlar orasida xizmatlarning qaysidir ko'rinishiga ixtisoslashgan davlatlar ham bor. Biroq, rivojlangan va rivojlanayotgan mamlakatlar o'rtasida xalqaro xizmatlar samaradorligidagi farq juda katta. Xalqaro xizmatlar sohasida raqobatning kuchayishi ushbu xizmatni ko'rsatuvchi kompaniyalarning ixtisoslashuviga olib keldi. Bugungi kunda ixtisoslashuv asosan quyidagi



guruhlardan iborat: qurilish loyihalari, sanoat loyihalari, ilmiy-sanoat loyihalari, mahsulotlarni ishlab chiqarish va sotish bo'yicha maslahatlar va boshqalar.

Globalashuv alohida milliy iqtisodiyotlar o'rtasidagi munosabatlar orqali sodir bo'lmaydi. U maxsus tuzilgan xalqaro iqtisodiy tashkilotlar orqali o'z faoliyatini davom ettirmoqda. Bu tashkilotlar globalashuv institutlari deb ham ataladi. Globalashuvning uchta instituti mavjud. Bularga Jahon savdo tashkiloti (JST), Xalqaro valyuta fondi (XVJ) va Jahon banki (JB) kiradi.

Joriy iqtisodiy vaziyatni obyektiv aks ettirish uchun ma'lum ko'rsatkichlar qo'llaniladi. Shunday ko'rsatkichlardan eng muhimi YaIM va YaMM, ya'ni yalpi ichi mahsulot hamda yalpi ichki mahsulot ko'rsatkichlari hisoblanadi.

Real YaIM ning yillar kesimida o'zgarishi ²(%)

	2021-y	2022-y	2023-y	2024-y
Jahon	6,3	3,0	2,6	2,6
Rivojlangan mamlakatlar				
AQSh	5,5	2,6	1,5	1,5
Yevropa	5,8	1,9	2,5	2,5
Karib dengizi				
Braziliya	5,9	3,4	0,5	0,7
Yaqin Sharq va Shimoliy Afrika				
Braziliya	4,8	3,0	2,9	2,0
Meksika	6,0	3,7	3,2	2,3
Argentina	10,7	5,0	-1,6	-3,5
Yaqin Sharq va Shimoliy Afrika				
Saudiya Arabistoni	6,2	5,9	1,5	2,8
Nigeriya	4,3	8,7	-0,9	2,5
Angola	3,6	3,3	2,9	3,3
Janubiy Osiyo				
Angola	1,2	3,0	0,9	2,9
Hindiston	8,6	5,8	6,6	6,2
Bangladesh	9,7	7,0	8,2	6,6
Pokiston	6,9	7,1	5,8	5,6
Afrika mintaqasi				
Pokiston	5,8	6,2	-0,2	1,8
Afrika mintaqasi	4,4	3,8	3,0	3,5
Nigeriya	3,6	3,3	2,9	3,3
Janubiy Afrika	4,7	1,9	0,6	1,2
Angola	1,2	3,0	0,9	2,9

² <https://finance.tsue.uz/index.php/afa/article/view/589/617>



Rivojlanayotgan va rivojlangan iqtisodlar mintaqasida iqtisodiy istiqbollar farq qilsa-da, 2024-yilda aksariyat hududlarda o'sish sekinlashishi kutilmoqda. Joriy yilda Sharqiy Osiyo va Tinch okeani, Yevropa va Markaziy Osiyo, Lotin Amerikasi va Karib havzasi hamda Janubiy Osiyoda o'sishning sekinlashishi qisman ushbu mintaqalardagi eng yirik iqtisodiyotlarda iqtisodiy faollikning sekinlashishi bilan bog'liq. Boshqa hududlarda bu yil o'sish sur'atlari o'sishi kutilmoqda, garchi ilgari prognoz qilinganidek sezilarli bo'lmasa-da. Kelgusi yilda pul-kredit siyosati yumshatilishi va global savdoning tiklanishi tufayli ko'pchilik mintaqalarda o'sish kuchayishi bashorat qilinmoqda. Barcha mintaqalar uchun istiqbolga salbiy ta'sir ko'rsatadigan xavf-xatarlarga geosiyosiy keskinlikning kuchayishi, savdoning yanada parchalanishi va jahon moliya bozorlaridagi kutilganidan ham qattiqroq sharoit kiradi. Vaziyatning yomonlashishiga, shuningdek, iqlim o'zgarishi bilan bog'liq tabiiy ofat xavfining ro'yobga chiqishi, shuningdek, Xitoyda iqtisodiy o'sishning kutilganidan zaifroq bo'lishi sabab bo'lishi mumkin.

Globalashuv bugungi dunyo iqtisodiyotining eng muhim va keng qamrovli jarayonlaridan biri bo'lib, mamlakatlarning iqtisodiy rivojlanishi, savdo-sotiq, investitsiyalar va texnologiyalar almashinuvi orqali bir-biriga tobora bog'lanib borayotganini namoyon etmoqda. Ushbu jarayon iqtisodiy o'sishga sezilarli ta'sir ko'rsatib, u qator yangi imkoniyatlar va muammolarni yuzaga keltirdi.

Birinchiidan, globalashuv iqtisodiy o'sish uchun keng imkoniyatlar yaratdi. Xalqaro savdoning jadallashishi, global kapital oqimlarining ko'payishi va zamonaviy texnologiyalarning tez tarqalishi iqtisodiyotlarni samarali rivojlanishga undadi. Ayniqsa, raqamli iqtisodiyot va global ta'minot zanjirlarining rivojlanishi mamlakatlarga iqtisodiy o'sish sur'atlarini oshirishga yordam berdi. Xitoy, Hindiston va Janubiy-Sharqiy Osiyo davlatlarining jadal rivojlanishi ushbu jarayonning yaqqol namunasi bo'lib xizmat qilmoqda.



Ikkinchidan, globallashuv iqtisodiy tengsizlik va noaniqliklar kabi yangi qiyinchiliklarni ham keltirib chiqarmoqda. Mamlakatlar o'rtasidagi iqtisodiy tafovutlar chuqurlashib, rivojlangan va rivojlanayotgan davlatlar o'rtasidagi resurslar taqsimotidagi nomutanosiblik kuchaymoqda. Bundan tashqari, ekologik muammolar, resurslarning cheklanganligi va iqlim o'zgarishi globallashuv sharoitida iqtisodiy o'sishni barqaror saqlash uchun asosiy to'siqlardan bo'lib qolmoqda.

Uchinchidan, globallashuv sharoitida iqtisodiy o'sishni boshqarish va uni barqaror saqlash strategiyalari muhim ahamiyat kasb etadi. Davlatlarning iqtisodiy siyosati, xalqaro hamkorlik va innovatsiyalarni rag'batlantirish masalalari globallashuvning salbiy oqibatlarini kamaytirish va o'sishni qo'llab-quvvatlashda asosiy omil hisoblanadi. Shu bilan birga, inson kapitaliga investitsiya kiritish, raqamli texnologiyalarga e'tiborni kuchaytirish va yashil iqtisodiyotga o'tish jarayonlari muhim strategik yo'nalishlar sifatida qaralishi zarur.

Xulosa qilib aytganda, globallashuv sharoitida iqtisodiy o'sishning xususiyatlari murakkab va ko'p qirrali. Ushbu jarayon mamlakatlar oldida bir vaqtning o'zida keng imkoniyatlar va jiddiy sinovlarni yaratmoqda. Kelajakda globallashuv jarayonining iqtisodiy o'sishga ijobiy ta'sirini oshirish uchun davlatlar o'z siyosatlarini xalqaro hamkorlik, barqaror rivojlanish va innovatsiyalar asosida shakllantirishi lozim. Shu bilan birga, iqtisodiy tengsizlikni kamaytirish va ekologik muammolarni hal qilish uchun hamkorlikni mustahkamlash zarur bo'ladi. Faqat shu yo'l bilan globallashuvning barcha ishtirokchilar uchun foydali bo'lishiga erishish mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. NamDU-ARM-13125 Jahon_iqtisodiyotining_globallashuvi.O'quv qo'llanma
2. <https://finance.tsue.uz/index.php/afa/article/view/589/617>
3. https://www.researchgate.net/publication/323537003_THEORETICAL_ASPECTS_OF_STATE_REGULATION_OF_NATIONAL_MACROECONOMIC_ENVIRONMENT